


Yil fasllarining almashishi



Yer yuzida yilning to'rt fasli almashib turadi: qish, bahor, yoz va kuz. Yil fasllari Yer Quyoshning atrofida aylanib turgani uchun almashadi. Yer o'qining og'ish burchagi shundayki, Yer sharining bir qismi Quyoshga yaqinroq, bir qismi esa uzoqroq joylashgan. Yerning Quyosh tomonga og'ib turgan tomonida qish, Quyoshdan uzoqroq tomonida esa yoz bo'ladi.



Bir yil – to'rt fasl – 12 oy. Yilning har bir fasli uch oydan iborat.





Ta'rifiga ko'ra, yilning qaysi fasli ekanini toping.

Yilning eng sovuq fasli. Kunlar qisqa, tunlar uzun. Ko'pgina o'lkalarda qor yog'ib, sovuq boshlanadi. Daraxtlar bargsiz qoladi. O'simliklar o'sishdan to'xtaydi. Ba'zi jonivorlar uyquga ketadi.

Kunlar ilib, uzaya boshlaydi. Yerdan maysalar unib chiqadi, daraxtlar kurtak yozadi. O'simliklar yana o'sa boshlaydi. Issiq o'lkalarga ketgan qushlar qaytib keladi. Uyquga ketgan jonivorlar uyg'onadi.

Quyosh charaqlab chiqadi, jazirama kunlar boshlanadi. Bog'larda, dalalarda gullar ochiladi. Meva va sabzavotlar pishadi. Odamlar salqin joylarda dam oladilar va oftobda toblanadilar.

Kunlar qisqarib, soviy boshlaydi. O'simliklarning o'sishi sekinlashadi. Daraxtlarning bargi sarg'ayib, to'kila boshlaydi. Dalalarda paxta terimi boshlanadi. Bog'lardagi mevalar g'arq pishadi. Odamlar ham, jonivorlar ham qishga zaxira g'amlashga tushadi.






1. Yilning to'rt fasli – qish, bahor, yoz va kuz uchun rang tanlang. Nima uchun bunday rang tanlaganingizni tushuntirib bering.
2. Yana qanday ranglarni qo'shgan bo'lardingiz? Nima uchun?





Rassom o'z rasmlarida bir joyning turli fasllardagi holatini tasvirlagan.

1. Bu rasmlarda qaysi vaqt tasvirlangan?
2. Buni qanday belgilarga qarab bilish mumkin?



Har bir faslning o'z mavsumiy hodisalari bor. Bu hodisalar bizga tabiiy, oddiy ko'rinadi. Biroq olimlar bu tabiat hodisalarining kelib chiqish sabablarini o'rganish va tushuntirish uchun ularni kuzata boshladilar.

Tabiat hodisalari mavsumga qarab, jonli tabiatda ham, jonsiz tabiatda ham yuz beradi.



Jadvaldagi qanday tabiat hodisalari to'rt faslga ham mos keladi? Juftliklar tuzing.

Namuna: Qish – yaxmalak

To'rt fasl

Qish	Bahor	Yoz	Kuz
Xazonrezgi	Jonivorlar qishki uyquga ketadi		Yaxmalak
Shamol	Qor		Shafaq
Mevali daraxtlar gullaydi	Yomg'ir		Qorlar eriydi
Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi	Mevalar pishadi		Jala
Jonivorlar in qazib, ozuqa g'amlaydi	Kamalak		Jonivorlarning yungi to'kilib, yangilanadi
Qor yog'adi	Qor bo'roni		Daryolar muzlaydi



Gap qaysi faslga tegishli hodisalar haqida boryapti? Yuqoridagi jadvaldan foydalaning.

— havoning harakatlanuvchi oqimi. U iliq yoki sovuq, kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin.

— yer yuzida hosil bo'ladigan muz qatlami.

— osmondan tushayotgan suv tomchilari.